ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

University of economics and pedagogy Boshlang`ich ta`lim yo`nalishi
2-bosqich BT 02-24-guruh talabasi
Xoshimova Sarvinoz.
O`qituvchi: **Qanoatova Nazokat.**
sarvinozhosimova8@gmail.com Tel:+998916155580

"ODAM BO`LISH QIYIN"ASARIDA INSONIYLIK VA VIJDON TALQINI HAMDA INSON VA JAMIYAT MUNOSABATLARI.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O`lmas Umarbekovning "Odam bo`lish qiyin" asarida insoniylik, vijdon va ma`naviy mas`uliyatni badiiy talqini tahlil qilinadi. Asarda inson shaxsining axloqiy kamoloti, uning ichki ruhiy kechinmalari handa hayotiy tanlovlari orqali insoniylik mohiyati ochib berilgan.Muallif qahramonlar taqdiri vositasida insonning jamiyatdagi o`rni, uning ma`naviy masalalarini yoritadi. Mazkur maqolada asardagi inson va jamiyat munosabatlari, shaxsning vijdon oldidagi mas`uliyati masalalarini yoritadi.Tahlil natijalari shuni ko`rsatadiki, "Odam bo`lish qiyin" asarida insonning haqiqiy qadr-qimmati uning ijtimoiy mavqei bilan emas,balki ma`naviy pokligi, halolligi va vijdoni bilan belgilanadi.Asar insonning ma`naviy kamolot yo`lini yorituvchi muhim badiiy manba sifatida e`tirof etiladi.

**Kalit so`zlar:**insoniylik, vijdon, ma`naviyat, axloqiy tanlov, badiiy obraz, inson va jamiyat munosabatlari.

Kirish: Ijtimoiy-tarixiy kontekst va shaxs ma`naviyati.

O`lmas Umarbekovning "Odam bo`lish qiyin" asari XX asrning ikkinchi yarmidagi o`zbek adabiyotida inson qadr-qimmati va ijtimoiy muhit munosabatlarini badiiy tahlil qilgan eng salmoqli asarlardan biridir. Roman yozilgan davr – sho`ro mafkurasining shaxs ustidan hukumronligi va urishdan keyingi tiklanish jarayonlarining murakkabligi bilan xarakterlanadi.Asarning bosh g`oyasi shunchaki axloqiy pand-nasihat emas, balki insonning ijtimoiy martaba va vijdon pokligi o`rtasidagi muhim tanlovni ko`rsatib berishdan iborat.Romandagi markaziy ziddiyat – inson qadrining uning ichki dunyosi bilan emas, balki egallab turgan lavozimi va ijtimoiy maqomi bilan o`lchanishda namoyon bo`ladi. Muallif Abdullajon obrozi orqali inson ma`naviyatining muhit ta`sirida yemirilishini mahorat bilan tasvirlaydi.Asarda mansab faqat mehnat faoliyati emas,balki shaxsiy hayotni va insoniy munosabatlarni belgilovchi mezonga aylanadi.Abdullajonning sof muhabbat (Gulchehra) dan voz kechib,manfaat ustiga qurilgan munosabatlarni (Sayyora) tanlashi- bu jamiyatdagi byurokratik tizimning shaxs ongini zaharlaganidan dalolat beradi.Urushdan keyingi og`ir iqtisodiy va ijtimoiy sharoit kishilarda moddiy ta`minotga bo`lgan kuchli intilishni uyg`otadi. Biroq muallif bu qiyinchiliklar insonning "odam bo`lib qolishi"ga to`sqinlik qilmasligi lozimligini ta`kidlaydi. Xayot mashaqqatlari ba`zilarni toblaydi (Gulchehra kabi), ba`zilarni esa nafs yo`lida zaiflashtiradi.Yozuvchi inson qadrini "diplom" yoki "mansab" bilan o`lchaydi. Asarning nomidanoq anglashiladigon "qiyin" so`zi- bu tinimsiz ruhiy poklanish jarayonidir. Romanda yozuvchi insonning ichki dunyosi va tashqi muhit o`rtasidagi murakkab munosabatni chuqur falsafiy mazmunda ochib beradi.Asardagi qahramonlar orqali inson hayotidagi eng muhim masalalardan biri- vijdon oldidagi mas`uliyat masalasi ko`tariladi. Muallif shuni ta`kidlaydiki, jamiyat turli bosimlar, manfaatlar va imkoniyatalar mavjud bo`lsa-da, inson o`z insoniyligini saqlab qolishi uchun doimo ma`naviy tanlov oldida turadi. Ayniqsa, Abdullajon obrazi orqali yozuvchi insonning ichki ikkilanishi va ma`naviy zaifliklarini realistik tarzda tasvirlaydi. Uning hayotdagi tanlovlari faqat shaxsiy qaror emas, balki jamiyatda shakillangan qadriyatlar tizimining ta`siri sifatida namoyon bo`ladi. Bu esa romanning ijtimoiy-falsafiy ahamiyatini

yanada kuchaytiradi. Shu bilan birga, asarda Gulchehra obrazi inson pokligi, sadoqat va ma`naviy barqarorlik timsoli sifatida namoyon bo`ladi. Uning xarakteridagi matonat va insoniylik asarning axloqiy g`oyasini mustahkamlaydi. Muallif aynan shunday qahramonlar orqali haqiqiy inson qanday bo`lishi kerakligini badiiy jihatdan ifoda etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, roman nafaqat bir davr ijtimoiy hayotning badiiy tasviri, balki inson ma`naviyati, vijdon va insoniy qadriyatlar haqida chuqur falsafiy mulohazalarni ham o`z ichiga olgan asardir.

Hulosa: O`lmas Umarbekovning “Odam bo`lish qiyin” asari inson ma`naviyatini, vijdon va ijtimoiy muhit o`rtasidagi murakkab munosabatlarni chuqur badiiy tahlil qilgan asar hisoblanadi. Asarda yozuvchi insoning haqiqiy qadri uning mansabi yoki moddiy holati bilan emas, balki haloligi, vijdoni va insoniy fazilatlari bilan belgilanishini asoslab beradi. Asardagi qahramonlar taqdiri orqali muallif jamiyatdagi mansabparastlik, manfaatparastlik kabi illatlarni tanqid qiladi va insonning o`z ma`naviy qiyofasini saqlab qolishini qanchalik muhim ekanligini ko`rsatadi. Shu bilan birga, roman har qanday davrda har inson uchun eng katta sinov- bu insoniyligini yo`qotmaslik ekanini anglatadi. Shu jihatdan qaraganda, asar nafaqat o`sha davr ijtimoiy muhitini, balki umuminsoniy qadriyatlarni targ`ib qiluvchi muhim badiiy manba sifatida ahamiyatga ega. Demak, “Odam bo`lish qiyin” romani insoning ma`naviy kamoloti, vijdon pokligi va haqiqiy insoniylik g`oyalarini targ`ib etuvchi dolzarb asarlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati.

1. Umarbekov O`. **Odam bo`lish qiyin.-** Toshkent:G`ofur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti 1989.
2. Karimov N. **O`zbek adabiyoti tarixi**.-Toshkent:O`qituvchi nashriyoti,2008.
3. Qosimov B. **O`zbek adabiyoti nazaryasi**.-Toshkent: Fan nashriyoti,2004.